

TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA O'SPIRIN YOSHDA QIZLARDA KREATIV TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8425541>

p.f.d. dotsent **Mirsolieva Muhabbat Tuxtasinovna**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Nigora Tulyaganova Rahmonali qizi

Annotatsiya

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar

xotin-qizlar, tadbirkorlik faoliyati, kreativ tadbirkorlik, o'spirin qizlar, ijtimoiy faollik, gender tenglik.

So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, oila institutini mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda, normativ-huquqiy baza yanada takomilashtirilmoqda.

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat⁷.

O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat».

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi.

⁷ <https://huquqiyportal.uz/dictionary>

Birinchidan, tadbirkorlikning subyeksi kim bo'lishi mumkin? Qonun- chilikka muvofiq, balog'at yoshiga yetgan har bir fuqaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'zi ixtiyor etgan qonunga zid bo'lmagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqoridagi ta'rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni – mazmuni ifoda etilgan bo'lib, u mazmunan boy, xilma-xil ko'rinishga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish bo'lmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir⁸.

Tadbirkorlik faoliyatining hozirgi kunda keng va jadal rivojlanib borayotgan shakli kreativ yo'nalishidagi tadbirkorlikdir.

Kreativlik (creatio) standart, an'anaviy qoidalar va shablonlardan chetga chiqish bo'lib, shaxsning yaratuvchilik va ijodkorlik qobiliyati sanaladi.

Amerikalik psixolog Dj. Gilford shaxs tafakkurini divergent va konvergent tafakkurga ajratadi. Bunda divergent tafakkur muayyan vaziyatga nisbatan turli xil yondashuvdagi qarorlar qabul qilishni nazarda tutuvchi ijodkorlikni aks ettirsa, konvergent tafakkur esa turli vaziyatlarda bir xil yondashuv va takrorlanuvchi yechimlarni taklif qilish xususiyati bilan belgilanadi. O'z navbatida, tadqiqotchi divergent tafakkurni shaxsning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi tafakkur tarzi sifatida ifodalaydi. Bizning nazarimizda ham kreativlik bu shaxsning nostandart tafakkur tarzi bo'lib, bunda shaxsning fikrlashi, tasavvurlar doirasi, tavakkalchilik sifatleri, fantaziyasi hamda dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-pedagogik tahlillarimiz davomida aynan qizlarda kreativ tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish muammosining nazariy jihatdan o'rganilganligiga e'tibor qaratdik.

Tadqiqotchi M.Arziqova o'zining umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi, qadriyatli ustanovka va qadriyatlar tizimining shakllanganligi, oila hamkorligidagi ta'lim-tarbiya jarayoni, ularning o'z-o'zini boshqarish, tadqiqotchilik faoliyatidagi ishtiroklari, kreativligi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi⁹.

⁸ Tadbirkorlik va biznes asoslari: Kasb-hunar kollejlari va akademik лицейлар учун ўқув қўлланма. 6-нашр./ З.Худойбердиевнинг умумий тахрири остида; -Т.: "ИЛМ ЗИЁ", 2014 - 342 б.

⁹

Pedagog olimasi O. Musurmonova esa, zamonaviy ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga undovchi omillarni taxlil etishdan oldin unga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar to'g'risida to'xtalib, quyidagilarni asoslaydi:

birinchidan, tadbirkorlik faoliyatida aqliy salohiyat xususiyatining ahamiyati beqiyosdir. Bundan tashqari, bilimdonlik, qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, ijtimoiy muammolarga yechim topishga asoslangani, bajarish lozim bo'lgan ishlarni sabab va oqibatlarini oldindan tasavvur qila olish, ijodiy yondasha olish qobiliyati kabi sifatlari tadbirkorning maqsad-muddaolarini aniqlab olishi hamda faoliyatini oqilona rejalashtirishga imkon yaratadi.

ikkinchidan, tadbirkor muomala madaniyati, odamlar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Jumladan, ko'pchilik fikridan to'g'ri xulosa chiqarish, boshqalar fikrini sabr-toqat bilan eshitish, zarur hollarda oxirigacha o'z nuqtai-nazari va manfaatlarini himoya qila olish, turli toifa jins va yoshdagi kishilarga fikrini tushuntira bilish ana shunday fazilatlardandir.

uchinchidan, tadbirkor ko'pincha tavakkal ish tutishga majbur bo'lgani bois u kuchli iroda sohibi bo'lishi kerak. Buning uchun esa jur'at, sa'y-harakat, istak va ehtiyojlarini nazorat qila olish, raqobatbardoshlik, maqsad sari intiluvchanlik, o'z «meni»ga xos fazilatlarni namoyon etish orqali ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lish, qat'iyat, talabchanlik, jasorat, dadillik kabi fazilatlar talab etiladi.

to'rtinchidan, tadbirkor zimmasiga katta mas'uliyat olgani, kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlagani uchun tani salomat, ruhiyati tetik va mustahkam bo'lmog'i zarur.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Ayollar tadbirkorligi Global indeksi" (Female Entrepreneurship Index - FEI) butun dunyoda ayollar tadbirkorligi rivoji istiqbollarni o'lchab beradi. Mazkur gender indeksda ayollar tadbirkorligi rivojining sifatini quyidagi 3 ta asosiy omil belgilab beradi:

- tadbirkorlik muhiti (Entrepreneurial Environment);
- tadbirkorlik ekotizimi (Entrepreneurial Eco-System);
- ayollarning tadbirkorlik bilan shug'ullanish istaklari (Entrepreneurial Aspirations).

Yuqoridagi tahlillardan, tadbirkorlik, xususan kreativ tadbirkorlik haqida so'z borganda, avvalo shaxsdagi ijodkorlik, tavakkalchilik, tashabbuskorlik bilan bog'liq sifatlarning shakllanishiga alohida e'tibor qaratish, shuningdek, mazkur jarayonda o'quvchi-qizlardagi tadbirkorlik bilan shug'ullanish istaklarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy-tarbiyaviy muhitni yaratish lozimligini xulosalash mumkin.

Empirik kuzatishlarimiz asosida, o'quvchi-qizlarda kreativ tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

- o'quvchi-qizlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi oilalarning farovonlik darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi;

- o'quvchi-qizlarning tadbirkorligi natijasida ularning xulq-atvorida erkaklarga nisbatan ijobiy ijtimoiy-ahamiyatli me'yorlar shakllanadi;

- o'quvchi-qizlarning kreativ tadbirkorligi asosida ular tomonidan amalga oshiriladigan biznes texnologiyalar zamonaviy o'zgarishlarga tezkor moslashishi, innovatsiyalarga boyligi va ijtimoiy yo'nalganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Darhaqiqat xotin-qizlar tadbirkorligi o'zining motivlari, ijtimoiy yo'nalganligi bilan erkaklar tadbirkorligidan farq qiladi, bu esa ayollar tadbirkorligining gender o'ziga xosligini e'tiborga olishni taqazo etadi.

"Gender" tushunchasining lug'aviy ma'nosi lotincha "genus", ya'ni "jins" ma'nosini anglatadi. Agarda, biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender - bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o'z o'rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Gender - xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati.

Ma'lumki, inson gender haqidagi tushunchalar bilan tug'ilmaydi, ular bolalikdan oilada, maktabda, ish joyida va jamiyatda egallanadi. Masalan, aksariyat oilalarda qiz va o'g'il bolalar uchun munosib va ustun kasblar haqida bir-biriga o'xshash g'oyalar o'g'il bolalarni muhandislik, huquq va tibbiyot, biznesga yo'naltiradi. Sohalarni tanlashda gender nomutanosiblik qizlarning uy xo'jaligi ishlari yoki qishloq xo'jaligi ishlaridagi ishtirokida, maishiy sohadagi faolligida namoyon bo'ladi. Xuddi shunday tadbirkorlik sohasida ham. Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan xotin-qizlarning aksariyati duch keladigan birinchi to'siq bu - ularga bo'lgan ishonchsizlik, oiladagi qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi hamda ijtimoiy aloqalarining yetarli emasligidan boshlanadi. Bunday gender stereotiplar esa, xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladi.

Gender munosabatlar jamiyatning hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiradi.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin davlat va jamiyat hayotida tub o'zgarishlar amalga oshirildi hamda har tomonlama milliy rivojlanishga imkon yaratildi.

Yangilanish jarayonining muhim tarkibiy qismidan biri konstruktiv gender siyosati hisoblanadi. Mustaqil milliy taraqqiyotning dastlabki kunlaridan boshlab, ayolning oilada va jamiyatdagi rolini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ham davlatimiz siyosatining ustuvor strategiyalaridan biri sifatida qayd etildi.

Shunday ekan, mazkur sohadagi ishlarni rivojlantirishda, o'quvchi-qizlarning tadbirkorlik, xususan, kreativ tadbirkorlik borasidagi ko'nikmalarini rivojlantirishda oila-mahalla va maktab hamkorligida qizlar uchun kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, bunda ular ijtimoiy-madaniy cheklovlar asosida emas, balki o'z qobiliyatlariga munosib tanlovni amalga oshirishlarini tushuntirib borish, shuningdek qizlarni kreativ tadbirkorlik ko'nikmalari, AKT, STEM (Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohasidagi bilimlarini rivojlantirish; mahallada qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi maxsus o'quv kurslarini, start-ap tanlovlarini tashkil etib borish maqsadga muvofiq.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Намройев Н. Тadbirkorlik asoslari. - Т.: Yangi nashr, 2010. - 360 b.
2. Корецкая Г. Модель Дорожной Карты развития креативной экономики в странах Центральной Азии. - 41 с.
3. [Тadbirkorlik va бизнес asoslari: Kasb-xunar коллежлари ва академик лицейлар учун ўқув кўлланма. 6-нашр./ З.Худойбердиевнинг умумий тахрири остида; -Т.: "ИЛМ ЗИЁ", 2014 - 342 б.]
4. Z. Mahkamova, O. Musurmanova, R. Turdiboeva "Oqila ayollar-farovon oila tayanchi" uslubiy qo'llanma Toshkent 2023 yil
5. M.Ortiqova "Umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida ўқувчиларда тadbirkorlik кўникмаларини ривожлантириш" p.f.d. dissertatsiyasi Andijon 2020 yil